

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

## **NAVOYINING YOSHLIK LIRIKASIGA MANSUB MUSTAZODLAR TADRIJI**

**Nusratullo JUMAXO'JA,**

*Alisher Navoyi nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti professori,  
filologiya fanlari doktori  
E-mail: [ataullo98@mail.ru](mailto:ataullo98@mail.ru)*

**DOI** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14803603>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Alisher Navoiy ijod etgan lirik janrlardan biri – mustazodni o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada birinchi marta Navoyining yoshlik lirkasiga mansub mustazodlar maxsus tadqiq etilmoqda. Tahlil obyekti sifatida Navoyining "Ilk devon"i va "Oqqa yunli muxlislar devoni"da aks etgan mustazodlari tanlab olingan. Mustazodlarning ushbu devonlardagi ilk variantlari shoirning mukammal devonlaridagi variantlar bilan qiyosiy tahlil etilgan. Tahlil jarayonida Navoyining o'z asarlari ustida ijodiy ishslash jarayonlari ochib berilgan. Mustazodlarning ilk va mukammal variantlari o'rtaqidagi ijodiy takomil (evolyutsiya) bosqichlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Mustazod, ijodiy takomil, ijodiy evolyusiya, tadrijiy takomil, ilk variant, mukammal variant, ijodiy ishlov, poetika, badiiy mahorat, matn tahriri, muallif tahriri, xattotlar xatolari, noshirlar nuqsonlari, badiiy sayqaldorlik.

**Аннотация:** Данная статья посвящена исследованию одного из лирических жанров, созданных Алишером Навои – мустазада. В статье впервые специально изучаются мустазады, относящиеся к ранней лирике Навои. В качестве объекта анализа были выбраны сюжеты навойинских "Ранний диван" и "Диван ак-коюнидских почитателей" Навои. Ранние варианты мустазада на этих диванах сравниваются с вариантами совершенных диванов поэта. В ходе анализа выявлены творческие процессы работы Навои над его произведениями. Выделены этапы творческого совершенствования (эволюции) между ранним и совершенным вариантами мустазадов.

**Ключевые слова:** Мустазад, творческое совершенствование, творческая эволюция, ранний вариант, совершенный вариант, творческая обработка, поэтика, художественное мастерство, редактирование текста, авторская редакция, ошибки коллиграфов, недоработка издателей, художественная полировка.

**Annotation:** This article is devoted to the study of one of the lyrical genres created by Alisher Navoi - mustazod. The article is the first to specifically study mustazods belonging to Navoi's youth lyrics. Navoi's mustazods reflected in "Ilk devon" and "Divan of the Aq qoyunlu admirers" were selected as the object of analysis. The first versions of mustazods in these devons were analyzed comparatively with the versions in the poet's complete devons. In the process of analysis, the processes of Navoi's creative work on his works were revealed. The stages of creative development (evolution) between the first and complete versions of mustazods are highlighted.

**Key words:** Mustazod, creative improvement, creative evolution, gradual improvement, first version, perfect version, creative processing, poetics, artistic skill, text editing, author's editing, calligraphers' mistakes, publishers' defects, artistic polish.

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MERO SINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Alisher Navoyi “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining har bir devoniga bittadan mustazod kiritganini inobatga olib, ko‘pchilik shoir ushbu janrdagi asarlarini ulug‘vor yoshlarida yaratgan deb o‘ylaydi. Aslida, Navoiy ilk ijodi davrlaridanoq mustazod janrida ham qalam tebratgan. Shoirning to‘rt mustazodidan ikkitasi uning yoshlik lirkasiga mansubdir. Uning:

*Ne vo ‘smavu ne kesmadur ul zulfi sumansoy,  
ne g ‘amzayi jodu,*  
*Mashshota sanga zoli falakdur magar, ey oy,  
xurshid anga ko‘zgu*  
matlali mustazodi dastlab “Ilk devon”dan o‘rin olgan.  
*Ey, husnunga zarroti jahon ichra tajalli,  
mazhar sanga ashyo,*  
*Sen lutf bila kavnu makon ichra muvalli,  
olam sanga mavlo*

bayti bilan boshlanuvchi mustazodi esa shoirning ikkinchi norasmiy devoni “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”ga kiritilgan. Agar “Ilk devon” 1465-66 yillarda tartib berilganini hisobga olsak, Navoiyning birinchi mustazodi shoirning 24-25 yoshlarigacha bitilgan bo‘lib chiqadi. Oqqo‘yunli muxlislar tomonidan tuzilgan devon 1471-yil 25-dekabrda ko‘chirilgani ilmga ma’lum. Ikkinchi mustazodning “Ilk devon”ga kiritilmaganidan kelib chiqsak, uning 1466-1471-yillar oralig‘ida yozilganligini aniqlash mumkin. Bu paytda Navoiy 30 yoshdagi zabardast yigit bo‘ladi. Shunday qilib, shoirning yoshlik lirkasiga mansub mustazodlari Navoyining 25-30 yoshli navqiron yigit va yetuk shoir sifatida tanilgan davrida yozilgan, deya xulosa chiqarish mumkin. Demak, endi Navoyining dastlabki ikki mustazodi qaysi yillarda, shoirning necha yoshli davrida yozilganligi ilmga ma’lum. Bu esa Alisher Navoiy tarjimayi holi va ijodiy takomili haqidagi yangi ilmiy ma’lumotdir.

Ma’lumki, shoirning ilk ijodida yaratilgan asarlar “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotigacha muayyan ijodiy takomil (evolyutsiya) bosqichlarini bosib o‘tishi tayin qonuniyat. Chunki yaratilgan asar devondan devonga yillar osha mutlaq o‘zgarishsiz ko‘chmaydi. Ijodkor nimanidir yangilaydi, asar matni katta-kichik qandaydir o‘zgarishlarga yuz tutadi. Badiiy asar zimnidagi har bir so‘z, hijo, harf, tovush yangilanishi ham ijodiy takomilga xizmat qiladi. Masalan, “Ilk devon”dagi mustazod matni quyidagicha (keyingi devonlar matnlaridan farqli jihatlari qizil rangda beriladi):

*Ne g ‘amzavu ne kesmadur ul zulfi sumansoy,  
ne g ‘amzayi jodu,*  
*Mashshota sanga zoli falakdur magar ey oy,  
xurshid anga ko‘zgu.*

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MERO SINI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

*Qosh yosi (?) kirpik o 'qin har sori otsang,  
imkoni xato yo 'q,  
Har kimsaki bo 'lg 'ay anga bu nav o 'qu yoy,  
tuz bo 'lg 'usi qobu.  
Masjid yo 'lin asrab necha din ahli yo 'luqsa,  
rahzanliq etarsen,  
Tengri yo 'lini asramoq, ey kofiri xudroy,  
bu nav' bo 'lurmum?!  
Gar istamadi subhi umidimni yoshurg 'oy  
mehnat qaro shomi,  
Har yon sochilib, bas tutubon bo 'ldi sumanso(?)  
ul turrayi hindu?  
Hijron tunining tiyralig 'in kavkabi ashkim  
daf aylasa, tong yo 'q,  
Anjum sipahi ko 'prak erur anjumanoroy  
tun bo 'lsa qarong 'u.  
G 'am dashtini qat' aylabon ul ko 'y(?)ga etmon,  
ko 'rmon oni tush ham,  
Kim bo 'lsa haram shavqi bila bodiyapaymoy,  
ko 'zdin uchar uyqu.  
Ul sho 'x Navoyini, dedikim, qilayin qatl  
bir ko 'z uchi birla,  
Ey voyki, bir ham anga ko 'z solmadi, ey voy,  
qatl ushbudur, ushbu [1.137].*

Navoyi "Ilk devon"dan keyin ushbu mustazodni avval birinchi rasmiy devoni "Badoye ul-bidoya"ga ko 'chirgan [ 2.583], undan keyin esa "Xazoyin ul-maoniy" lirik kulliyoti devonlarini tartib berish chog'ida "Badoye ul-vasat" devoniga joylashtirgan [3.657].

Biz qiyosiy tahlil uchun keyingi devonlardagi mustazod matnlarini to'liq keltirmaymiz. Chunki har uchala devonda ham matn butun, ya'ni 7 bayt hajmida bir xilda tugal aksini topgan. Mustazod kompozitsiyasi va mundarijasi o'zgarmagan, baytlar tartibi bir xil. Shu boisdan, faqat o'zgarishlar tahlili bilan cheklanamiz. Matnlar orasidagi asosiy katta farq shundan iboratki, uchta so'z butunligicha o'zgarishga uchragan. Bular: matnda qizil rang bilan belgilangan "g 'amza", "tutubon" va "tun" so'zlaridir.

*Ne g 'amzavu ne kesmadur ul zulfi sumansoy,  
ne g 'amzayi jodu*

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

shaklidagi birinchi misra keyingi matnlarda:

*Ne vo 'smavu ne kesmadur ul zulfi sumansoy,  
ne g 'amzayi jodu*

ko‘rinishida qo‘llangan. Xo‘sh, “g ‘amza” so‘zi qanday qilib va nima sababdan “vo ‘sma”ga aylandi? Bu – tasodifmi, kotibning xatosimi yoki mustazod muallifi – shoirning ijodiy ishlovi mahsulimi? Nazarimizda, bu – tasodif ham, kotibning xatosi ham emas, balki shoirning ongli ravishda, ijodiy ishlov tariqasida matnga o‘zgartirish kiritishidir. Chunki, ilk variantda bir misraning o‘zida “g ‘amza” so‘zi ikki marta takrorlangan edi. Bir marta asosiy misrada, ikkinchi marta qo‘shimcha misrada. Aslida, “g ‘amza” so‘zi “kesma” so‘zi bilan ichki qofiyadoshlik hosil qilib, misraga ziynat bag‘ishlagandek bo‘lib ko‘rinadi. Lekin “g ‘amza” so‘zining qo‘shimcha misrada yana takrorlanishi misra jozibadorligiga rahna solib turibdi. Misra badiiy sayqal topishi uchun, albatta, takrorni bartaraf etish lozim edi. Shoir aynan shu vazifani bajargan va misra badiiy sayqaldorlikka tuyassar bo‘lgan.

To‘rtinchi bayt matnlarida quyidagicha farq bor. Ilk devonda:

*Gar istamadi subhi umidimni yoshurg ‘oy  
mehnat qaro shomi,  
Har yon sochilib, bas tutubon bo ‘ldi sumanso (?)  
ul turrayi hindu?*

Rasmiy devonlarda:

*Gar istamadi subhi umidimni yoshurg ‘oy  
mehnat qaro shomi,  
Har yon sochilib, bas ne uchun bo ‘ldi sumansoy  
ul turrayi hindu?*

Yaqqol ko‘rinib turibdiki, ilk variantdagi “tutubon” so‘ziga “ne uchun” deya tahrir kiritilgan. Ushbu tahrir ham tasodify yoki kotib xatosi emas, balki Navoyining o‘z badiiy ishlovidir. Chunki “tutubon” so‘zi tufayli birinchi misra mazmuni bir oz mavhumlik kasb etgan edi. “Suman” yoqimli hidli oq gulni, “sumansoy” yoqimli hid taratishni anglatadi. “Tutubon” so‘zidan ham har yonni xushbo‘y gulning hidi tutdi degan ma’no chiqadi. Ammo bu so‘z shoir ko‘zlagan taajjub, hayrat ma’nosini yaqqol ifodalashga ojizlik qilgan. Shuning uchun shoir uning o‘rniga “ne uchun” so‘zini qo‘llab, adabiy maqsadini aniq ifodalashga erishgan. Ushbu tahrirdan keyin baytdan quyidagi badiiy mazmun anglashilgan: “Agar ayriliqning qora tuni umidim tongi yorishishini istamasa, nima uchun yorimning hindularga o‘xshagan qora sochi har yoqqa o‘zining oppoq va xushbo‘y nurlarini sochdi?”

Keyingi bayt matnidagi farq yanada o‘zgacharoq:

*Hijron tunining tiyralig ‘in kavkabi ashkim*

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

*daf aylasa, tong yo 'q,*

*Anjum sipahi ko 'prak erur anjumanoroy*

*tun bo 'lsa qarong 'u.*

Bunda “Ilk devon”dagi matn sahihligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, “Badoye ul-vasat” devonidagi matn ham aynan shunday. “Badoye ul-bidoya” devonida esa baytdagi bir so‘zning boshqacha yozilganini ko‘ramiz:

*Hijron kunining tiyralig 'in kavkabi ashkim*

*daf' aylasa, tong yo 'q,*

*Anjum sipahi ko 'prak erur anjumanoroy*

*tun bo 'lsa qorong 'u.*

Ushbu baytning “Badoye ul-bidoya”dagi birinchi misrasida asliyatdagi “*tun*” so‘zi “*kun*” so‘zi bilan almashib qolgan. Ana endi bu o‘zgarishni tahrir emas, balki xato deya baholash mumkin. Albatta, bu – Navoyiniki emas, balki tasodif yoki kotib xatosi bo‘lishi mumkin. Ushbu o‘zgarishning xatoligi shundaki, baytda kun emas, balki tun haqidagi tasvir bayon etilgan. Lirik qahramon g‘aroyib tasvir orqali aytyaptiki: “*Mening behisob yulduzlardek sochilgan ko 'z yoshlarim ayriliq kechasi qorong 'iligin yo 'qotsa, ajab emas. Chunki kecha qorong 'iligi qanchalik quyuq bo 'lsa, yulduzlar galasi shunchalik porlab, osmonni yoritib turadi*”. Ushbu baytda “*tun*” so‘zi o‘rniga “*kun*” so‘zini qo‘llash mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi. Chunki, an’anaga ko‘ra, hijron kunga emas, balki tunga o‘xshatiladi va yulduzlar ham qorong‘i tunda ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Mustazod matni variantlarida yana ayrim mayda nuqsonlar ko‘zga tashlanadi. Masalan, “*Qosh yosi bila kirpik o 'qin har sori otsang, imkon xato yo 'q*” misrasi “Badoye ul-bidoya” hamda “Badoye ul-vasat” devonlarida to‘liq va to‘g‘ri berilgan. “Ilk devon”da esa “*bila*” so‘zi tushib qolgan. Bu ham tasodifiy xato. Chunki “*bila*” so‘zi bo‘lmasa, misradagi mantiq ipi uzilib qoladi. Shoir kiprik o‘qlarini qoshning yoyi, ya’ni kamoni bilan otishni tasvirlayapti. “*Bila*” so‘zi “*qosh yosi*”ni “*kirpik o 'qi*” bilan bog‘lab turibdi. Bir so‘z tushib qoldimi, tamom, bayt mazmuniga putur yetadi.

Yana quyidagi farqlarni qayd etish mumkin: Ikkinci misradagi “*sumansoy*” so‘zi “Ilk devon” variantida “*sumanso*” shaklida turibdi. Bunda “*yo*” harfi kotib tomonidan tasodifan yozilmay qolgan bo‘lishi mumkin. Beshinchchi misradagi “*rahzanliq*” so‘zi “Badoye ul-vasat”da aynan, “Badoye ul-bidoya”da esa “*rahzanlik*” shaklida aks etgan. Bu nuqson nashr jarayonida yuz bergen bo‘lishi ham mumkin. Yettinchi misradagi “*yoshurg 'oy*” so‘zi “Badoye ul-bidoya” va “Badoye ul-vasat” devonlari nashrlarida, bizningcha, “*yoshurg 'ay*” shaklida xato yozilgan. Qo‘sishchaning “-g ‘oy” shakli Navoyi tili asliyatiga va vazniga ham muvofiq, deb o‘ylaymiz. O‘n birinchi misradagi “*ko 'yg 'a*” so‘zi “Ilk devon” variantida “*ko 'yga*”,

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

“Badoye ul-bidoya” nashrida “*ko'yig'a*” shaklida bitta egalik qo’shimchasi o‘rinsiz orttirilib yozilgan, “Badoye ul-vasat” nashrida to‘g‘ri berilgan. Ushbu tafovutlar mazmunga deyarli jiddiy ta’sir etmaydi. Biz ularni matn sahihligi nuqtayi nazaridan nuqson deb hisoblaymiz.

Alisher Navoyining yoshlik lirikasiga mansub ikkinchi mustazod “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”da quyidagicha matnda aks etgan:

*Ey, husnunga zarroti jahon ichra tajallo,*  
*mazhar sanga ashyo,*  
*Sen lutf bila kavnu makon ichida mavlo,*  
*olam sanga mavlo.*  
*Har yon kezaram telba sifat toki yoshurdung*  
*ko‘zdin pari nisbat,*  
*Majnundin o‘zin toki nihon qilmadi Layli,*  
*ul o‘lmadi shaydo.*  
*Har yon nazарим dushsa, sen ollimda durursen,*  
*ko‘rmas vale ag‘yor,*  
*Ravshandurur ushbuki, emaz qobili a‘mo*  
*nazzorayi bayzo.*  
*Ul nodiradinkim, laqabin hur demishlar,*  
*husnung erur ahsan,*  
*Ul manzaradinkim, odidur jannati a‘lo,*  
*ko‘yung erur a‘lo.*  
*Zuhd ichida dopmadi Navoyi chu maqome,*  
*emdi qilur ohang,*  
*Kim o‘la ulu bodavu bir turfa mug‘anniy,*  
*mug‘ kulbasi ma‘vo[4.62-63].*

“Oqqo‘yunli muxlislar devoni”da besh bayt hajmida aks etgan ushbu mustazod Navoyining barcha rasmiy devonlarida yetti bayt hajmida o‘z ifodasini topgan. Shunga asosan, mustazodning dastlabki shaklini ilk variant va keyingi shaklini takomillashgan variant sifatida belgilash mumkin. Har qalay, mavjud voqelik shunga asos beradi. Ammo Navoyining o‘zi mustazodni yetti bayt hajmida yozgan va oqqo‘yunli muxlislarga uning atigi besh bayti yetib borgan yoki oqqo‘yunli muxlislarning kotibi mustazodning faqat besh baytini devonga ko‘chirib kiritgan, ikki baytini tushirib qoldirgan bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas. Lekin ilmda mavjud matn asosida mulohaza yuritiladi. Mustazodning zamonaviy nashrlardagi matnlari deyarli bir xil. Biz muqoyasa uchun, shartli ravishda, namuna sifatida mustazodning Navoyi TATi, “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi matnini asos qilib olamiz. U quyidagicha:

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

*Ey husnunga zarroti jahon ichra tajallo,  
mazhar sanga ashyo,*  
*Sen lutf bila kavnu makon ichra muvalli,  
olam sanga mavlo.*  
*Har yon kezaram telbasifat toki yashundung  
ko 'zdin pari yanglig',*  
*Majnundin o 'zin toki nihon qilmadi Laylo,  
ul bo 'lmadi shaydo.*  
*Uryon badanim zaxmlari ichra emas qon,  
yuz pora ko 'nguldur,*  
*Bu ravzanalardin qiladur har biri ya 'ni  
husnungg 'a tamoshо.*  
*Har yon nazarim tushsa sen ollimda turarsen,  
ko 'rmas vale ag 'yor.*  
*Ravshandurur ushbuki, emas qobili a 'mo,  
nazzorayi bayzo.*  
*Ul nodiradinkim, laqabin hur demishlar,  
husnung erur ahsan.*  
*Ul manzaradinkim, otidur jannati a 'lo,  
ko 'yung erur a 'lo.*  
*Zuhd ichida topmadi Navoyi chu maqome,  
emdi qilur ohang,*  
*Kim bo 'lg 'ay ulu bodau bir turfa mug 'anniy,  
mug 'kulbasi ma 'vo.*  
*Har gavhari tufrog ' uza bir qatra su yanglig '  
tushkach adam o 'lg 'ay.*  
*Gar qilmasa ishfoq etibon Xusravi G 'oziy  
nazmi sari parvo[5.673].*

Ushbu matnlar aro eng katta farq shundan iboratki, “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”dagi mustazodda uchinchi va yettinchi baytlar yo‘q. Bu baytlar keyinchalik, “Badoye ul-bidoya” devoni va “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti tuzilgan paytda kiritilgan. Mazkur dalil shuni anglatadiki, Navoiy birinchi rasmiy devoni – “Badoye ul-bidoya”ni tuzayotganida shu davrgacha yaratilgan she’rlarini sarhisob qilgan. Nuqson, kamchiliklari bo‘lsa, ularni bartaraf etib, chala o‘rinlari bo‘lsa, ularni takomillashtirib, saranjomlab, yakunlagan. Shu jumladan, yozgan mustazodlarini ham qaytadan ko‘rib chiqqan, ko‘ngli to‘limgan joylarini isloh etgan, shakl va mazmun jihatidan qiyomiga yetkazgan. Tahlil etilayotgan mustazod boshqalaridan hajman

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

kamligini inobatga olib, uni rivojlantirib, boshqalari bilan bir xil me'yorga keltirgan, ya'ni hamma mustazodlarning hajman bir xil – yetti baytdan iborat bo'lishini ta'minlagan.

Ammo bu masalaga Navoiy shunchaki asar hajmini to'ldirish, baytlar sonini ko'paytirish nuqtayi nazaridan yondashmagan. Balki mustazodning badiiy qurilmasi, ya'ni lirik kompozitsiya taqozosiga ko'ra ish tutgan. Bu fikrga ushbu mustazodni shoirning boshqa bir mustazodi bilan qiyoslab, imon keltirishimiz mumkin. Mustazodning uchinchi baytdan boshqa barcha baytlarida oshiqning ma'shuqqa madhu sanolari, ruhiy o'rtanishlari ifodalangan. Oshiq vujudining ahvoli esa tasvirlanmagan. Shoir mana shu bo'shliqni to'ldirgan. Mustazodning o'rta baytlarida oshiqning jismoniy ahvoli tasviri ham o'rin tutishi asar kompozitsiyasi uchun juda muhim edi. Kiritilgan yangi baytda oshiqning ruhiy ahvoliga muvofiq jismoniy holati bunday tasvirlangan:

*Uryon badanim zaxmlari ichra emas qon,  
yuz pora ko'nguldur,  
Bu ravzanalardin qiladur har biri ya'ni  
husnungg 'a tamosh.*

Mazkur baytda tasvirlanishicha, oshiqning qip yalang'och badanlarida son-sanoqsiz jarohatlar bor. Ular qontalash. Yo'q-yo'q, ular oshiq vujudidagi qon sizib turgan yaralar emas, balki ko'ngilning yuz parchaga bo'lingan bo'laklaridir. Jarohat bo'lib ko'rinyotganlar yaralar emas, go'yoki oshiq terisidagi tuynuklar, darchalardir. Bu tuynuklar ortidagi ko'ngil bo'laklarining har biri yara ko'zları orqali ma'shuq husnini tamosh qilayotgandek go'yo. Mana, oshiqning jismoniy ahvolini qanday go'zal tasvirlash mumkin ekan! Bunda, birinchidan, oshiqning yor hajridagi xasta vujudi, ikkinchidan, ishq dardidan ming bo'lakka bo'lingan qontalash yurak tasviri mujassam. Shunday og'ir xasta holatda ham oshiqning ming bir bo'lak yuragi vujudi darchalaridan ma'shuqning benazir husn-u jamoliga mahliyo boqadi. Demak, mustazod baytlarida oshiqning faqat ruhiy holati emas, balki jismoniy ahvoli ham tasvirlanishi qonuniy hol ekan.

Shu o'rinda mustazod noshirlariga bir e'tirozli mulohazamiz bor. Mustazodning barcha nashrlarida mazkur baytning ikkinchi misrasi quyidagicha bir xil tabdil etilgan:

*Bu ravzanalardin qiladur har biri **ya'ni**  
husnungg 'a tamosh.*

Bizningcha, misradagi "**ya'ni**" so'zi g'alat o'qilgan. Bu so'z "**ya'ni**" emas, balki "**ayni**" bo'lishi kerak. Chunki mazkur o'rinda "**ya'ni**" so'zining ma'nosi misra mazmuniga uyg'un emas. Bunday jo'n so'z qo'llash Navoyi uslubi va mahoratiga xos emas. Arabcha qo'lyozmada "**ya'ni**" bilan "**ayni**" so'zlarining yozilishi juda o'xshash.

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

So‘zni kotiblar ham g‘alat yozgan bo‘lishlari mumkin. Endi misraga “ayni” so‘zini qo‘llab, mag‘zini chaqib ko‘raylik. Oshiq ko‘ngilning majruh parchalari vujud darchalari orqali ma’shuq husnining “ayni”ni tomosha qiladi.

Mana, endi shoirning “*Din ofati bir mug‘bachayi mohliqodur...*” deb boshlanadigan boshqa bir mustazodi uchinchi baytini ham sharhlab ko‘raylik:

*Ul chehra furug‘i tushubon zor tanimg‘a  
bir nav’ kuyarkim,  
Har kimsa ani ko ‘rdi, sog‘indiki yonodur  
o ‘t ichida xoshok.*

Ushbu baytda ham Yor husni otashidan oshiqning zor tani, ya’ni vujudi, badani ne ahvolga tushgani o‘ta mubolag‘ali tasvirlangan. Go‘yo, ul ilohiy husn-u jamolning otashin shu’lasi oshiqning zor taniga tushib, oshiq vujudi shundayin o‘rtanib yonadiki, uni ko‘rgan har kimsaning ko‘z oldiga alanga ichida to‘lg‘anib, chirsillab kuyayotgan xoshok gavdalanadi. Ko‘rinib turibdiki, bu ikki mustazodning uchinchi baytlari bir-biriga fikr, mazmun va tasvir jihatidan juda yaqin. Mana, nima uchun Navoiy mustazodni yangi bayt bilan to‘ldirgan.

G‘azal va mustazodlarning toq baytlardan iborat bo‘lishi ham mumtoz adabiyot nazariyasi jihatidan qonuniy hol edi. Navoiy besh baytli mustazodga yangi – uchinchi baytni qo‘shdi va asar olti baytli bo‘ldi. Besh baytli mustazod shoirning taxallusli bayti bilan yakunlangan edi. Bunday tugallanma asarning dastlab besh baytli tugal holatda vujudga kelganligini tasdiqlaydi. Lekin qo‘sishimcha bayt qo‘shilishi bilan asar noan’anaviy holatga keldi – olti baytli mustazodga aylandi. Endi uni an’anaviy yetti baytga takomillashtirish ehtiyoji tug‘ildi. Taxallusli baytdan keyin yana bir bayt ilova qilish janr poetikasiga zid emas. Chunki g‘azal va mustazod janrida matladan oldingi baytda taxallus qo‘llash qoidasi ham bor.

Bundan tashqari, besh baytli mustazod Navoyining muxlislari tomonidan tuzilgan devonga kiritilgan. U devon sulton sohibqiron Husayn Boyqaroning rahnamoligi va homiyligida hamda Alisher Navoiyning o‘z tashabbusi va bevosita nazorati ostida tuzilgan emas. Navoiyning rasmiy devonlari “Badoye ul-bidoya” va “Navodir un-nihoya” hamda, ayniqsa, “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti bevosita Husayn Boyqaroning maslahati, tavsiyasi, talabi, ta’bir joiz bo‘lsa, davlat buyurtmasi asosida, bevosita Navoiyning o‘zi tomonidan tuzilgan. Bu haqda shoirning o‘zi “G‘aroyib us-sig‘ar” devoni debochasida batafsil ma’lumot bergen. Binobarin, Navoiy mustazodni takomillashtirar ekan, yakunlovchi baytda sulton Husayn Boyqaroning tarixiy, benazir xizmatini tavsiflab o‘tishi tabiiy hol edi. Bu e’tirof va tahsin-tasanno notugal mustazodni quyidagicha haddi a’losiga yetkazgan:

*Har gavhari tufrog‘ uza bir qatra su yanglig‘*

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

*tushkach adam o'lg'ay.*

*Gar qilmasa ishfoq etibon Xusravi G'oziy*

*nazmi sari parvo.*

Ma'lumki, Navoiyning o'zi "G'aroyib us-sig'ar" debochasida ta'kidlaganiday, "Xazoyin ul-maoni" kulliyotiga kiritilayotgan har bir asar Husayn Boyqaroning nazaridan o'tgan. U ustoz shoir Husayniy sifatida she'rlarning ayrim baytlari, misralari, so'zlarini isloh etgan, asarlarga nuktadonlik bilan tahrir kiritgan, sayqal bergen. Navoiy sohibqironning ana shu adabiy rahnamoligiga ishora qilaroq, mustazodning yakunlovchi baytida aytadiki: "*Agar Xusravi G'oziy mehr-shafqat yuzasidan faqirning nazmini tahrir nazaridan o'tkazmaganida, uning gavhar kabi har bir so'zi tuproqqa tushgan bir tomchi suvdek singib ketar edi*". Shunday qilib, yoshlik lirkasiga mansub besh baytli mustazod Navoiyning ongli ravishdagi qayta ishlovi natijasida yetti baytli mukammal mustazod darajasiga yetishdi.

Mustazodning birinchi baytidagi ayrim so'zlar barcha nashrlarda ishtibohli. Bu ishtiboh "Xazoyin ul-maoni"ning Hamid Sulaymon nashrida quyidagicha aks etgan:

*Ey husnугга zarroti jahon ichra tajalli,*

*mazhar sanga ashyo,*

*Sen lutf bila kavnu makon ichida mavli,*

*olam senga mavlo [6. 671].*

Ushbu nashrda "husnunga" so'zining ikkita "g" harfi bilan yozilishi xato. Bitta ortiqcha "g"ning takrorlanishi vaznning ravon ohangiga xalaqit beradi. Ikkinci misrada ikki marta qo'llangan "sanga" so'zining "senga" shaklida berilishi ham xato. Chunki Navoiyning o'zi "sanga" shaklini qo'llagan va qo'lyozmada ham xuddi shunday yozilgan. "Sin" (s) harfidan keyin "yo" (e) harfi yo'q. Baytdagi uchinchi asosiy bir xato "ichra muvalli" iborasining "ichida mavli" yozilganidir. Qo'lyozmadagi "ro" (r) harfi "dol" (d) deb xato o'qilgan. "Ichra" so'zida "chim" (ch) harfidan keyin "yo" (i) harfi ham yo'qliki, so'zni "ichida" deb gumon qilinsa. Keyingi so'z "mim" (m), "vov" (v), "lom" (l), "yo" (i) harflari bilan aniq-tiniq "muvalli" yozilgan. Qo'lyozmalarda "zeru zabar" va harfning ikkitaligini bildiruvchi "pish" ishora belgilari ishlatilmaydi. Mana shu hol noshirlarni chalg'itgan va ular "muvalli" so'zini "mavli" yoki "mavlo" deb o'qiganlar. Lekin bu so'z hamma nashrlarda bir xil emas, "Oqqo'yunli muxlislar devoni"da, MATdag'i "Badoye ul-bidoya" devonida "mavlo", "G'aroyib us-sig'ar" devonining Hamid Sulaymon nashrida "mavli", "G'aroyib us-sig'ar"ning TATdag'i nashrida "muvalli" shaklida qo'llangan. Asliyatda, ya'ni qo'lyozmada "tajalli" yozilgan so'z ham Hamid Sulaymon nashrida to'g'ri, qolgan uch nashrda "tajallo" shaklida noto'g'ri ko'chirilgan.

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROOSINI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

“Oqqo‘yunli muxlislar devoni”dagi mustazodning ikkinchi bayti ham boshqa devonlardagi matndan ancha farqlidir. Unda bayt quyidagicha:

*Har yon kezaram telba sifat toki yoshurdung*

*ko ‘zdin pari nisbat,*

*Majnundin o ‘zin toki nihon qilmadi Layli,*

*ul o ‘lmadi shaydo.*

Ushbu ilk variantdagi “*toki yoshurdung ko ‘zdin pari nisbat*” iborasi keyingi boshqa barcha devonlar nashrida “*toki yashundung ko ‘zdin pari yanglig*” shaklida keladi. Matndan darhol anglashiladiki, ilk variantda matniy xato bor. Ushbu matn yo oqqa‘yunli muxlislarga xato holatda yetib borgan yoki ularning kotiblari ko‘chirishda xatoga yo‘l qo‘yan bo‘lishi mumkin. Ikkinci misradagi “*Layli*” so‘zi esa ilk variantda to‘g‘ri, Hamid Sulaymon nashrida to‘g‘ri, MATdagi “*Badoye ul-bidoya*” devoni va TATdagi “*G‘aroyib us-sig‘ar*” devonida “*Laylo*” shaklida xato chop etilgan. Ushbu xato shakl noshirlari misra oxiridagi “*shaydo*” qofiya elementiga “*Laylo*” qofiya bo‘ladi, deb o‘ylaganlar. Lekin, mustazod qoidasi bo‘yicha, asosiy misraning oxirgi so‘zi qo‘shimcha misraning so‘nggi so‘ziga qofiya bo‘lishi shart emas. Ustiga ustak, qo‘lyozmada so‘z aniq qilib “*Layli*” yozilgan.

Yana bir asosiy tafovutni ta’kidlamay iloj yo‘qli, “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”da mustazodning aksariyat so‘zleri o‘g‘uz lahjasи talaffuziga moslab yozilgan. Masalan: *tushsa – dushsa, turursen – durursen, ko ‘rmas – go ‘rmaz, emas – emaz, oti – odi, topmadi – dopmadi, bo ‘lg ‘ay – o ‘la* kabi.

Alisher Navoiyning yoshlik lirikasidagi mustazodlar va ularning tadrijiy takomili haqida quyidagicha xulosalarni aytish mumkin. Alisher Navoiy g‘azal janri singari, mustazod janrida ham yoshlik chog‘laridan qalam tebratgan. Uning yoshlik davrida yaratgan mustazodlari shoirning muxlislari tomonidan “Ilk devon”ga va “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”ga kiritilgan. Devonlarda xronologik aks etish tartibiga ko‘ra, “Ilk devon”dan o‘rin olgan:

*Ne vo ‘smavu ne kesmadur ul zulfi sumansoy,*

*ne g ‘amzayi jodu,*

*Mashshota sanga zoli falakdur magar, ey oy,*

*xurshid anga ko ‘zgu*

matlali asari shoirning birinchi mustazodi hisoblanadi. Keyingi davr navoiyshunosligida “Ilk devon” shoir ixlosmandlari tomonidan o‘zboshimchalik bilan emas, balki Abusaid Mirzoning topshirig‘i bilan tuzilgani haqidagi ma’lumot yoyildi. Atoqli olim Vahob Rahmonov “Jahon adabiyoti” jurnalining 2024-yilgi 7-sonida e’lon qilgan maqolalarida shu dalilni qayd etganlar: “*Ilmda “Ilk devon” nomida tanilgan devon Abusaid Mirzo topshirig‘i natijasi edi*”[7. 4]. Maqola muallifi ushbu dalilga

# **ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI**

## **xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

asos keltirmaydi, lekin 15 yoshlardagi yigitcha – Navoiy Abusaid Mirzoning o‘g‘liga dars berganligi va Abusaid Mirzo bir muddat yosh Navoiyga homiylik qilgani haqidagi ma’lumot navoiyshunoslikda bor.

*Ey, husnunga zarroti jahon ichra tajalli,  
mazhar sanga ashyo,  
Sen lutf bila kavnu makon ichra muvalli,  
olam sanga mavlo*

matlali asar esa shoirning ikkinchi mustazodi hisoblanadi. Ushbu mustazodlarning yaratilishi va devonlarga joylashtirilishi o‘rtasida besh yillik davr masofasi mavjud. Birinchi mustazod o‘z davrida xattotlar sultonidey deya dovrug‘ taratgan Sultonali Mashhadiy tomonidan devonga ko‘chirilgan. Ikkinchi mustazod Anisiy taxallusi bilan she’rlar yozgan shoir va xattot Abdurahim ibn Abdurahmon Xorazmiy tomonidan Oqqo‘yunlilar saltanatining markazi bo‘lgan Sheroz shahrida devonga ko‘chirilgan. Navoiyning ushbu norasmiy devonlaridagi mustazod matnlari shoirning mukammal rasmiy devonlaridagi mustazod matnlarining ilk variantlaridir. Ilk va mukammal variantlar o‘rtasida talay tafovutlar mavjudki, biz ularni maqola ichida bataysil tahlil etdik. Ushbu tafovutlar tahlilidan anglashiladiki, Navoiy ilk mustazodlarini mukammal devonlariga ko‘chirish jarayonida ular ustida jiddiy ijodiy ish olib borgan. Qayta ishslash jarayonida mustazodlarni to‘ldirgan, takomillashtirgan, sayqal toptirgan. Mustazodlar tarkibida muallifning matn tahriri bilan birga, xattotlar va noshirlar tomonidan yo‘l qo‘ylgan nuqsonlar ham mavjud. Mustazodlarning badiiy takomil jarayonlari Navoiy poetikasi va badiiy mahoratining muhim xususiyatlarini o‘zida mujassam ettirgan.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

#### **(Использованная литература/ References):**

1. Алишер Навоий. Илк девон. 1466 йилда кўчирилган қўлёзманинг факсимил нашри. Нашрга тайёрловчи филология фанлари доктори, проф. Ҳамид Сулаймон. “ФАН” нашриёти, –Т., 1968. 137-а – 137-б вараклар.
2. Алишер Навоий. МАТ, 1-том, Бадое ул-бидоя, “ФАН”, –Т., 1987 йил, 583-бет.
3. Алишер Навоий. ТАТ, 3-жилд, Бадое ул-васат, Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги F.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, –Т., 2011 йил, 657-бет.
4. Алишер Навоий. Оққўюнли мухлислар девони: табдил ва факсимил нашри. “Донишманд зиёси” нашриёти, Т., 2021. 62-б – 63-а вараклар.
5. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 1-жилд. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сигар. Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги F.Ғулом номидаги НМИУ, –Т., 2011. 673-бет.
6. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сигар. Илмий-танқидий текст асосида нашрга тайёрловчи Ҳамид Сулаймон. “ФАН”, Т., 1959 йил. 671-бет.
7. В.Раҳмон. “Илк девон”дан “Хазойин ул-маоний”гача. “Жаҳон адабиёти” журнали, 2024-йил, июл, 7-сон, 4-бет.